



SWAN: MARKAZIY OSIYODA SUV RESURLARINI BARQAROR BOSHQARISH

TOWARDS SUSTAINABLE WATER RESOURCES MANAGEMENT IN CENTRAL ASIA

LOYIHA MAQSADI: Markaziy Osiyoda suv resurslari va strategiyalarni boshqarishda inson va institutsional potentsialni ko'tarish; har bir hamkor mamlakatda suv resurslarini boshqarish bo'yicha magistrlik dasturlarini joriy etish; suv resurslarini boshqarish sohasida ilmiy hamkorlikni mustahkamlash; o'quv rejasi va dasturi orqali Bolonya jarayoni g'oyalarini amalga oshirish; suv resurslarini boshqarish bo'yicha o'quv rejasi va dasturini ishlab chiqish hamda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, shu bilan sifatli ta'limni ta'minlash uchun Markaziy Osiyolik hamkorlarning salohiyatini kuchaytirishga ko'maklashish;

KUTILAYOTGAN NATIJALAR: Loyiha Bolonya jarayoni talabalariga javob beruvchi o'quv rejasi va dasturni ishlab chiqish orqali bu jarayon g'oyalarini amalga oshirishga o'z hissasini qo'shadi. Loyiha bajarilishi natijasida suv resurslarini boshqarish bo'yicha magistratura o'quv rejasi, o'quv dasturi ishlab chiqiladi, magistrlar xonasi va suv resurslarini boshqarish Markazi tashkil etiladi. Suv resurslarini boshqarish sohasida Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida turgan muammolarni yecha oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Bu loyihaning innovatsion aspekti muammoga mintaqaviy yondashishning qo'llanilishidan iboratdir. Bunday yondashish Markaziy Osiyo davlatlariga o'zaro tajriba va resurslardan foydalanish, muammoni umumiy va garmonik tushunishni ishlab chiqish imkoniyatini beradi.



AMALGA OSHIRISH MUDDATI: 2010 yil yanvar - 2012 yil dekabr.

LOYIHA BYUDJETI: 792 200 **yeuro**.

GRANT OLUVCHI: Alikante universiteti (Ispaniya).

YEVROPA ITTIFOQIDAGI HAMKORLAR: Genuya universiteti (Italiya), Bratislavadagi Slovakiya texnologiya universiteti (Slovakiya), Varshava tabiiy fanlar universiteti (Polsha).

MARKAZIY OSIYODAGI HAMKORLAR: Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va bir qator Tojikiston, Qirg'iziston hamda Qozog'iston oliy ta'lim muassasalari.



Loyiha koordinatori Alikante universiteti (Ispaniya)